

MAVZU: ICHAK INFEKTSIYALARI



Praton Muxammadg'ulomjon

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
Mikrobiologiya virusologiya va immunologiya fani o'qituvchisi*


Infeksion kasalliklar — patogen mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, eng sodda jonivorlar va hokazo)ning kishi, hayvon va o'simlik organizmiga kirib ko'payib, zararli ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar. Infeksion kasalliklardan ba'zilar (masalan, qizamiq) bemorga yaqin yurilganda yuqadi, ularga „yuqumli kasalliklar“ termini juda mos keladi. Infeksion kasalliklardan ba'zilar (masalan, bezgak) bemorga yaqin yurilganda („kontakt“ yo'li bilan) yuqmaydi, demak, ularga „yuqumli kasalliklar“ termini unchalik to'g'ri kelmaydi. Bemor organizmida shu kasallikni vujudga keltiruvchi maxsus mikrob borligi va kasallikning odamdan odamga yuqishi mumkinligi Infeksion kasalliklarning asosiy belgilaridir



Infeksion kasalliklarning yanada tarqalishiga yo'l qo'ymaslik uchun shunday kasalliklar bilan og'rikan bemorlar yoki shunday kasallik bor deb gumon qilingan kishilar kasalxonada yoki uyida ajratib qo'yiladi. Toun (chuma), vabo (xolera), toshмали terlama (toshmalı tif), ich terlama (qorin tifi), paratif, dizenteriya, virusli gepatit, difteriya va b. kasalliklar topilgan yoki gumon qilingan kishilarni maxsus

sanitariya transportida kasalxonaga olib borib yotqizish shart. Gripp, qizamiq, ko'kyutal va b. ba'zi Infeksion kasalliklar bilan og'rikan bemorlarni alohida xonaga yotqizish, tegishli parvarish qilish va dezinfeksiya o'tkazib turish sharti bilan uyda ajratib qo'yish mumkin.

Sanatoriylar, dam olish uylari, bolalarni sog'lomlashtirish muassasalari, bolalar bog'chalari va yashilarda, shuningdek, kasalxonalarning terapiya, xirurgiya, pediatriya va b. (infeksion bo'limidan tashqari) bo'limlarida izolyator jihozlanadi. Ayniqsa, xavfli infeksiyalar (toun, vabo) bilan og'rikan bemorlarga yaqin yurgan kishilarni o'sha kasalliklarning inkubatsion davriga teng keluvchi muddat bilan ajratib qo'yish shart. Boshqa infeksiion kasalliklarda bemorlar turli muddat bilan ajratib qo'yiladi



Kunlarning isib borishi, yoz faslining boshlanishi natijasida aholi orasida o'tkir yuqumli oshqozon ichak kasalliklari xususan o'tkir diareya, qorin tifi, salmonilyoz, virusli gepatit va boshqa ovqatdan zaxarlanish kasalliklarining tarqalishi ehtimoli ortib boradi. Ushbu kasalliklar tez yuquvchi kasalliklar bo'lib, holsizlanish, bosh va qorin og'rig'i, ko'ngil aynib qayd qilish, ichning suyuq, tez-tez ketishi bilan kechadi. O'tkir xavfli, yuqumli oshqozon ichak kasalliklarining kelib chiqishida shaxsiy gigiena qoidalariga e'tibor qilmaslik, qaynatilmagan ariq, xovuz va quduq suvlari, yuvilmagan sabzavot va mevalar shu bilan birga pashshalar alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarga rioya qilmaslik natijasida kasallik sog'lom odamlarga yuqadi. Kasallikning oldini olishda quyidagi qoidalarga rioya etilishi zarur:



- Har doim, ayniqsa ovqatlanishdan oldin qo‘lingizni sovunlab yuving;
- Meva va sabzavotlarni toza ichimlik suvida(iloji bo‘lsa qaynagan suvda) yuvib istemol qiling;
- Ochiq suv xavzalaridan suv ichmang, faqat qaynatilgan suv iching, mumkin bo‘lmagan joylarda cho‘milmang;
- Oziq -ovqat maxsulotlarini tayyorlash, saqlash va ularni tashish hamda tarqatilishida santariya- gigiena qoidalariga rioya qiling;
- Non va boshqa oziq-ovqat maxsulotlarini polietilen xaltachalar va usti berk idishlarda saqlang;
- Idish tovovoqlarni sovun va yuvuvchi vositalar bilan uyushgan jamoalarda qo‘shimcha 0.2-0.5% xlorli aralashma bilan birgalikda yuving;
- Pashshalarning ko‘payib ketishiga yo‘l qo‘ymang;
- Hududlar, ovqatlanish obektlari hamda umumiy foydalanish joylarining tozaligi va sanitariya holatini saqlab turing;
- Tez buziluvchi oziq-ovqat maxsulotlarini xarid qilayotganingizda uning sifati va yaroqliligiga e‘tibor qarating;

-O‘zingiz va bolangizning tirnoqlarini o‘z vaqtida olib, bolangiz qo‘llarini doimo toza tutishga o‘rgating;

-Axlat tashlash joylarni tez-tez dezinfeksiya vositalari bilan zararsizlantirib turing;

-Ko‘ngil aynib, qorinda og‘riq paydo bo‘lsa, ich ketishi va ba’zi hollarda tana xarorati ko‘tarilsa zudlik bilan tibbiyot xodimlariga murojaat eting, shifokorlar maslaxatisiz har xil dori-darmonlarni o‘z bilganingizcha iste’mol qilmang

Asosiy adabiyotlar

1. Muxamedov I.M. va boshq. Meditsinskaya mikrobiologiya, virusologiya i immunologiya. Darslik. Toshkent. 2011 y.
2. Aliev Sh.R., Muxamedov I.M., Nuruzova Z.A. “Mikrobiologiyadan laboratoriya mashg‘ulotlariga doir qo‘llanma”. Toshkent. 2013y.
3. Qurbonova S.Y. “Mikrobiologiya va immunologiyadan amaliy mashg‘ulotlariga doir qo‘llanma”. Toshkent, 2015 y.

Qo‘shimcha adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va “Sog‘liqni saqlash Vazirligining” amaldagi buyruq va uslubiy tavsiyanomalari.
2. Saryov V.N. Mikrobiologiya, virusologiya i immunologiya. Darslik. Moskva, 2010 y.
3. UNICEF. Oila va maxallada salomatlik amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent. 2010 yil.
4. Muxamedov I.M. va boshq. “Umumiy virusologiya» O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2012 y.
5. Muxamedov I. M. va boshqalar. “Tibbiyot virusologiyasi» O‘quv qo‘llanma Toshkent, 2013 y.

Internet saytlari

- <http://www.ziyonet.uz>
- <http://www.microbiology.ru>
- <http://immunology.ru>
- [www.lex.uz.](http://www.lex.uz)